



ABDULLA QAHHOR VA ANTON PAVLOVICH CHEXOV ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Xasanova Dilbar Temirovna

*Surxondaryo viloyati Termiz shahar 8-son umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *maqolada adabiyotimizning so'z ustasi bo'lgan Abdulla Qahhorning o'ziga xos uslubi, uning Chexov bilan o'xshash tomonlari, asarlaridagi uyg'unlik kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zbek adabiyoti, so'z ustasi, qiyosiy tahlil, asar g'oyasi, hikoya.*

Ma'lumki, o'zbek adabiyoti darg'alaridan Abdulla Qahhor ijodida, ayniqsa, uning ilk hikoyalarida rus adibi Anton Pavlovich Chexov asarlarining ta'siri yaqqol seziladi. Chinakam iste'dod egasi sifatida Abdulla Qahhor salafiga ijodiy ergashish bosqichidan u bilan ijodiy musobaqalashish darajasiga ko'tarila oldi. Buyuk rus munaqqidi V.G. Belinskiy bir san'atkorning ikkinchi san'atkorga ta'sirini quyosh nurlarining yerga ta'siriga o'xshatgan edi — quyoshning nurlari bilan yerga tushgan urug' ko'karib-unib chiqqanidek, adabiy ta'sir tufayli yozuvchining mudrab yotgan ichki imkoniyatlari uyg'onadi va qanot yozadi. Chexov chin ma'noda Qahhor ijodidagi mudroq imkoniyatlarni uyg'ota olgan va qanot yozib ko'klarga parvoz etishida ilhom parisi vazifasini o'tagan. Bugun biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan kichik ilmiy ishimizda yuqoridagi ikki adib Abdulla Qahhor va Anton Pavlovich Chexov asarlarini badiiy-qiyosiy tahlil qilishga harakat qilamiz.

Bu ikki buyuk yozuvchilar haqida gap ketar ekan, avvalo, ularning ozgina shaxsiy fe'l-atvorlariga e'tibor qaratsak. Bunda Chexov qisqa umr ko'rganiga guvoh bo'lsak, Abdulla Qahhor esa o'rtacha odamning umrini yashab o'tgan. Chexov o'z xayotini: *"Mening bolaligimda bolalik yo'q edi"* degan o'kinch bilan boshladi va xayoti so'ngida *"Ijod lazzatini bilgan kishiga boshqa lazzatlar izlashning ehtiyoji qolmaydi"*, – dedi. Abdulla Qahhor esa aksincha: *"Portlagan mushakning go'zalligi sovuq, yulduzning go'zalligi iliq"*, degan noziklikkacha yetib bordi va hayotda o'zini har qanday go'zallikdan lazzatlanishga haqli deb bildi. Adiblarning fel-atvoridagi farqli va o'xshash belgilarni nega tilga olyapmiz? Biz shunchaki, Abdulla Qahhor o'z shaxsiy ko'zoynagi bo'lmaganida, u hech qachon "Qahhor" bo'lmasdi, deyapmiz, xolos.

Shu o'rinda shaxsiy ko'zoynak masalasiga to'xtalsak, yozuvchi o'zining *"O'tmishdan ertaklar"* kitobining muxtasar so'z boshisida Chexovning 22 tomlik tanlangan asarlarini *"qo'lidan qo'ymasdan"* o'qib chiqqanini yozib, yana bunday deydi, *"Shunday alomat hodisa yuz berdi: Chexov menga ashyo va hodisalarga qarab dunyoni qanday ko'rishga o'rgatdi. Ilgari go'yo dunyoga xira ko'zoynak bilan qaragan ekanman. Ustoz go'yo menga muborak ko'zoynaklarini berdilar. "Mana buni taqib o'z xalqingni o'tmishiga nazar sol!" – dedilar.*





Adib shu vaqtdan boshlab dunyoni shu ko'zoynakdan ko'ra boshladi. *"Muborak ko'zoynak"* Abdulla Qahhorni nasriy asarlar yaratishda, ayniqsa, hikoya janrining benazir uztoziga aylanishiga, *"Qahhor"* bo'lib yetishishiga sabab bo'ldi. Endilikda biz bu ikki mushtarak adibning ijodiy nuqtalariga to'xtalamiz va ulardan avval Qahhorning Chexov hikoyalari haqidagi gapini eslab o'taylik. *"Chexov hikoyalarining ko'p qismi o'z zamonasidagi Rusiya hayotining bir parchasi. Uning ijodidan butun Rossiyani ko'rish mumkin. Uning butun ijodi o'tmishni qoralab yozilgan aybnomadir."*

Chindan ham uning asarlarida o'z davrining og'riqli nuqtalari ochiq-oydin yoritilgan. Adibimiz ham salafining ortidan bordida xalq o'tmishi va buguniga nazar soladi va mana shuning natijasi o'laroq Qahhor ijodida o'ttizinchi yillardagi *"O'g'ri"*, *"Bemor"*, *"Anor"*, *"Dahshat"* kabi hikoyalari dunyoga keldi. Chexov ijodida esa *"Yovuz niyatli kishi"*, *"Chinovnikning o'limi"*, *"Uyqu istagi"*, *"Mujiklar"* kabi hikoyalari Nikolay davrining ochilgan darchalaridir. Endilikda biz Chexov va yozuvchi Qahhor hikoyalari ummoniga sho'ng'ir ekanimiz satirik ruhda yaratilgan asarlarining ne chog'li salmoqli va o'xshash ekaniga e'tibormizni qaratsak. Abdulla Qahhorning bunday satirik xarakterlar bilan yo'g'rilgan hikoyalari ichida *"San'atkor"*, *"O'jar"*, *"Adabiyot muallimi"* kabilar yetakchi o'rinni egallaydi.

Chexovda esa *"Buqalamun"*, *"Uzun til"*, *"Chiqdi"* kabi hikoyalarni misol qilib olishimiz mumkin Qahhorning *"San'atkor"* hikoyasida nodon, chalsavod artist haqida yozilgan. Bu odam san'atkor bo'lish uchun tovush bo'lsa bas, xatto sahnada turib aytadigan so'zlarning ma'nosi bilan ham ishi yo'q. Madaniyat tarannumini tarqatuvchilari va san'atkorlar orasida baxtga qarshi uchrab turadigan bu toifa odamlar kishining g'azabini keltiradi. Abdulla Qahhor bu asar uchun *"material"* vazifasini o'tagan shaxsni *"Qo'qonda ekanimda ko'rganman va yigirma ikki yildan beri uni bilaman"* deb aytgan. Bu ikki ajoyib so'z san'atkorlari shunday badiiy kashfiyotlar qilganki, adabiyot sohasida faoliyat yurituvchilar bularni hisobga olmasligi mumkin emas.

Adiblar bazibir o'xshash hikoyalarning yuzaga kelishining bir sababi Abdulla Qahhor aynan o'xshash hikoyalarni o'zi o'zbek tiliga tarjima qilganligi, balki shuning uchun ham Qahhorning hikoyachilikdagi yutuqlari ko'proq individual uslubiy yutuqlarda emas, balki ustozining ta'siri natijasida yuzaga chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. A. Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. -1987, №4. -B.44-46.
2. To'raev D. Yangi o'zbek adabiyoti. – Toshkent. Fan, 2008. – 191 b.
3. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T., SHarq, 2002, -254 b.
4. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., 2003.

